XALQ DEPUTATLARI SHIRIN SHAHAR KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 13 - sentabr VI-48-140-9-131-K/22 Shirin shahar hokimligi

Shirin shahar Mirzo Ulug‘bek mahallasi hududidagi nomsiz ko‘chalarga yangi nomlar berish to‘g‘risida

Kun tartibidagi masala deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilib hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi qonuning 6, 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari shahar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekpertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 27-iyuldagi 08-06377-sonli yig‘ilish bayoni qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shirin shahar Mirzo Ulug‘bek mahallasi hududidagi nomlanmagan ayrim ko‘chalarni nomlash to‘g‘risidagi takliflari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 27-iyuldagi 08-06377-sonli yig‘ilish bayoni qarori bilan taklif etilgan ko‘chalar ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Shirin shahar hokimi o‘rinbosari (Z. Abduvohidov), shahar IIB (A. Xolmatov), shahar adliya bo‘limi (I. Xakimov), statistika bo‘limi (B. Ziyayev), shahar Davlat soliq inspeksiyasi (X. Qobilov), Davlat xizmatlari markazi (A. Raxmatov), Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash shahar bo‘limi (R. Boyqobilov), Davlat kadastrlar palatasi Shirin shahar filiali (J. Xolmirzayev), va tegishli mutasaddi tashkilotlarga:

- mazkur qaror ilovasi asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar e’tiborga

olinsin va mazkur qarordan kelib chiqqan holda tegishli idoraviy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar hokimi o‘rinbosari (Z. Abduvohidov), shahar mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (R. Boyqobilov)larga:

- 10 kun muddatda hududlardagi nomlari o‘zgargan ko‘chalarga zamonaviy ko‘rinishdagi (lotin yozuvida homiy tashkilotlar yordamida) peshlavhalar yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish;

- peshlavhalar o‘rnatish va moliyalashtirish yuzasidan tegishli tashkilotlarga ko‘rsatmalar berish va nazoratga olish vazifalari yuklansin.

- bir hafta muddatda hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar belgilansin.

5. Shirin shahar Ichki ishlar bo‘limi (A. Xolmatov)ga:

- Shirin shahar Mirzo Ulug‘bek mahallasi hududlaridagi yangi nomlangan ko‘chalarda yashovchi fuqarolarga yangi pasport berish va ularni ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlar bilan yozilishini nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

6. Shahar hokimligi bosh yuristkonsulti (D. Kamilov)ga:

- mazkuz qaror jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish vazifasi topshirilsin.

7. Shahar hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Sh.Abduqunduzov);

- hududlarda yangi nomlangan ko‘chalarning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarda va hokimlikning veb-saytiga ma’lumotlar bersin.

8. “Shirin sadosi” gazetasi tahririyati (O. Ashurqulov)ga ushbu qarorni “Shirin sadosi” gazetasida yoritish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining barcha doimiy komissiyalari zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **S.Sultonov**

Xalq deputatlari Shirin shahar
Kengashining
2022 yil 13 sentabrdagi
VI-48-140-9-131-K/22-son qaroriga
1-ilova

Shirin shahar Mirzo Ulug‘bek mahallasi hududidagi nomlanmagan ayrim ko‘chalar

RO‘YXATI

№	Mahalla nomi	Ko‘chalarning hozirgi nomlanishi	Ko‘chalarni qayta nomlash bo‘yicha taklif etilgan nomlar	Tanlangan nom
1	Mirzo Ulug‘bek mahalla fuqarolar yig‘ini	1- nomsiz ko‘cha	Me’mor, Ishonch, Hilol	Hilol
2		2-nomsiz ko‘cha	Tafakkur, Hamdo‘stlik, Moziy	Tafakkur